

INTERAKT USULINI QO'LLASHDA FOYDALANILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR

УПРАЖНЕНИЯ И ЗАДАНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИНТЕРАКТИВНОГО МЕТОДА

EXERCISES AND TASKS USED IN THE APPLICATION OF INTERACTIVE METHODS

Dina Kuanishovna Tajbenova

Nukus davlat pedagogika instituti

assistent o'qituvchi

dinatajbenova1@gmail.com

Annotasiya. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol o'qitish metodlaridan foydalalinish mashq va topshiriqlarni tashkil etish xususiyatlari yoritilgan. Ularning nazariy bilimlarini o'zlashtirish, o'quvchilarning nutqiy, kommunikativ, kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy, reproduktiv-maxsuldor hamda amaliy yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish zarurligi asoslangan. .

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili, interfaol metodlar, mashqlar, ko'nikmalar, kommunikativ ko'nikmalar, ijodiy faoliyat.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности организации упражнений и заданий при использовании интерактивных методов обучения на уроках родного языка в начальной школе. Раскрывается их роль в усвоении теоретических знаний, развитии речевых, коммуникативных, когнитивных и творческих способностей учащихся. Обосновывается необходимость использования творческих, репродуктивно-продуктивных и практико-ориентированных заданий с учётом возрастных и индивидуальных особенностей обучающихся.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, интерактивные методы, упражнения, задания, речевые навыки, коммуникативные навыки, творческая деятельность.

ABSTRACT. The article examines the organization of exercises and tasks through interactive teaching methods in primary mother tongue lessons. It highlights their role in developing students' theoretical knowledge, speech, communication, cognitive and creative abilities. The importance of creative, reproductive-productive and practice-oriented tasks is substantiated, taking into account learners' age and individual characteristics.

Keywords: *primary education, mother tongue, interactive methods, exercises, tasks, speech skills, communication skills, creative activity.*

Kirish. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faollitarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar, shu metodlarning tarkibiy qismlari – mashq va topshiriqlar tashkil etmoqda. Interakt usulini qo'llashda ham mashq va topshiriqlar muhim o'rin tutadi. Mashqlar topshiriqlar asosida tashkil etiladi.

Faol o'qitish usullari, ayniqsa, interakt usuli qo'llanganda, bir tomondan, o'quv materiallari jadalroq va chuqurroq o'zlashtiriladi, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning kognitiv va kreativ faoliyati rivojlanadi, o'zaro raqobat tufayli yuqori samaraga erishish imkoniyati ortadi. Zero, bu jarayonda o'quvchilar kuchli mushohada yuritishga, nimanidir o'ylab topishga, ijod qilishga intilib, intellektual faoliyati kuchli darajada namoyon bo'ladi. Natijada topshiriqlarning bajarilish sifati yana ham yuqori ko'tariladi. Ayni paytda o'quvchilar ongida tobora kengayib boradigan, og'zaki va yozma nutqiy savodxonligi uchun zarur nazariy asoslar shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mashq shartlari topshiriqlar uchun asos bo'ladi. Mashqlar nazariy ma'lumotlar (bilimlar), ko'nikma va malakalar yuzasidan tuziladi. “Интерактивные формы обучения русскому языку” o'quv qo'llanmasida bayon qilinganidek, “Interaktiv usullar chuqur bilimlarni ham, tanqidiy fikrlash, muloqot, jamoaviy ish, muammolarni hal qilish va mustaqil ravishda ma'lumot olish kabi asosiy “yumshoq ko'nikmalar”ni ham rivojlantiradi, bu esa muloqot va amaliyot orqali o'rganishni passiv ravishda ma'lumot olishdan ko'ra qiziqarliroq, rag'batlantiruvchi va samaraliroq qiladi. Talabalar shunchaki faktlarni yodlash o'rniga, tashabbuskorlikni rivojlantiradilar, turli nuqtayi nazarlar bilan ishlashni, tahlil qilishni va bilimlarni amalda qo'llashni o'rganadilar” [9].

Mashqlar shunday tuzilishi kerakki, ular o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashdagi muvaffaqiyatlari orqali ularni rag'batlantirsin. Boshqacha aytganda, o'quvchilar o'zlarining ijodiy salohiyatlarini rivojlantirsinlar, real hayotdagi sharoitlarga o'xshash sharoitlarda nutq va muloqot ko'nikmalarini mashq qilsinlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganib, tadqiqot olib borish usullarini egallasinlar.

Interakt usuli qo'llanganda, o'quvchilar nazariy bilimlarni o'rganish va o'zlashtirishda jamoa bo'lib izlanishning ahamiyatini tushunib yetadilar, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar, ularga guruh ishlarida ishtirok etishlarini nazorat qilish, fikrlarini oqlash, tengdoshlarining fikrlarini hurmat qilish va qadrlashga odatlanadilar, bilimlar qay tarzda yuzaga kelganini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mashqlar yordamida yuqoridagi kabi natijalarga erishish oson emas. Bunda mashq materiallari ham katta rol o'ynaydi. A.A.Ismailova an'anaviy ta'lim haqida gapirib, uning kamchiliklaridan biri – o'quv material va topshiriqlariga shunday tavsif beradi: "o'quv materiallari asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari hamda boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda"[2]. Interaktiv metodlardan bilib foydalanish bularning butunlay aksi ekanligi xorij metodistlari tomonidan allaqachonlar isbotlab berilgan.

Nazariy ma'lumot ustida ishlash, malakalar ustida ishlashni mashq va topshiriqlar asosida tashkil etishda o'quvchilar ruhiyatini ham hisobga olish lozim bo'ladi. "Boshlang'ich maktab o'quvchilarining asosiy xususiyati - bu darhol motivatsiyani talab qiladigan zayif ixtiyoriy diqqat. Bola kelajakdagi natija uchun uzoq vaqt davomida qiziq bo'lmagan yoki qiyin ishga e'tibor qarata olmaydi. Ixtiyoriy diqqat boshlang'ich maktab o'quvchilarida ancha yaxshi rivojlangan. O'quv material vizual bo'lganda va o'quvchida hissiy munosabatni uyg'otganda, u ayniqsa diqqatni jamlagan va barqaror bo'ladi" [8].

Interakt usulini qo'llash jarayonida bajariladigan mashq va topshiriqlar tilga doir nazariy ma'lumotlar munosabati bilan o'quvchilarda tug'iladigan nazariy va amaliy muammolarni hal qilish, nazariy ma'lumotlar mazmunini tushunish, o'zlashtirish va ijodiy qo'llash, onglilikni va aqliy faollikni oshirish, kognitiv faoliyatni, nutq yaratish ko'lamini kengaytirish, izlanuvchanlikni kuchaytirishga muvaffaq bo'linadi.

Interakt usulini qo'llashda guruhlariga mashqlar ko'rinishida beriladigan topshiriqlar turlicha bo'ladi: yangi nazariy ma'lumotlar bilan bog'liq topshiriqlar, o'tilgan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash bilan bog'liq topshiriqlar, til birliklarini, ularning talaffuzi va imlosi, nutqda ishlatilishini mustahkamlash va takrorlash bilan bog'liq topshiriqlar. Topshiriq turlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, bunda hal qiluvchi ahamiyat mashq turlariga tegishlidir.

Nazariy ma'lumot bilan bog'liq topshiriqlar ham, mashq shaklidagi topshiriqlar ham ijodiy bo'lishi kerak. Ular bilimlarni oddiy o'qib eslab qolish, yoddan aytish emas, balki ijod qilish, kashf etish, tadqiqot olib borishga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday ijodiy topshiriqlar o'quvchilar nutq saviyasiga, hayotiga yaqin bo'lishi kerak.

Mashq va topshiriqlar bilimlarning qaysi komponenti mustahkamlanishi kerakligiga qarab, har bir komponenti 15 daqiqa ichida bajarilishini chamalab tuziladi. 15 daqiqa mashqni (topshiriqni) ado etish, qayta-qayta bajarib ko'rish, javob berish so'ralganda bemalol gapira oladigan bo'lib tayyorgarlik ko'rish uchun kifoya qilishi ko'zda tutiladi.

Odatda bilim komponentlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

– til birligi, uning talaffuzi va yozilishi, qo'llanishi haqidagi qoida;

- terminlar;
- so‘roq so‘zlar.

S.S.Tajbenova boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ushbu komponentlar sirasiga terminlarni, til birliklarini, so‘roq so‘zlarni, qoidalarni, ularga doir ko‘nikma va malakalarni kiritadi[5]. Shular asosida terminlarni mustahkamlashga qaratilgan quyidagi kabi mashq va topshiriqlar havola qilinadi:

Mashq turlari:

- bilimlarni o‘rganish va dastlabki mustahkamlashga (dastlabki ko‘nikma va malakalar hosil qilishga) qaratilgan mashqlar;
- til birliklarini anglash va amalda qo‘llash malakalarini hosil qilishga qaratilgan mashqlar;
- bilim va til birliklarini faollashtirishga yo‘naltirilgan mashqlar.

I. Bilimlarni o‘rganish va dastlabki mustahkamlashga (dastlabki ko‘nikma va malakalar hosil qilishga) qaratilgan mashqlar

Natijalar. Interakt usuli tilga doir nazariy ma’lumotlarni o‘rganish bilan bog‘liq ravishda tashkil etiladi. Bilimlar esa asosan nutq o‘stirish, muloqot savodxonligini oshirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Mashq va topshiriqlar o‘quvchilarda tug‘iladigan nazariy va amaliy muammolarni hal qilish, nazariy ma’lumotlar mazmunini tushunish, o‘zlashtirish va ijodiy qo‘llash, onglikni va aqliy faollikni oshirish, kognitiv faoliyatni, nutq yaratish ko‘lamini kengaytirish, izlanuvchanlikni kuchaytirishga qaratiladi.

Termin ma’nosini tushunish uchun:

- quyidagi terminlar anglatgan so‘zlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi? (ot, sifat, fe‘l, son; yuklamalar, atoqli otlar, sifatlar);

Terminlarni eslash uchun:

- so‘roq so‘zlarning qaysi terminlarni eslashga yordam berishini aytish;
- berilgan qo‘shimchalar qaysi terminlarni eslashga yordam berishini aytish;
- berilgan qoidalarda qaysi terminlar tushib qolganini aytish;
- berilgan ta’riflarda qaysi terminlar tushib qolganini aytish;
- berilgan kelishik qo‘shimchalarining qaysi kelishika mansubligini aniqlab aytish.

II. Til birliklarini anglash va amalda qo‘llash malakalarini hosil qilishga qaratilgan mashqlar

Qozoq tilida ham, qoraqalpoq tilida ham bir tushunchaga mansub qo‘shimchalar fonetik variantlarni hosil qiladi. Shuning uchun mashq yoki topshiriq bir mavzu bilan cheklanishi mumkin:

o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchalarining talaffuzi va imlosini qoida bilan tushuntirish;

– chiqish kelishigi qo‘shimchalarining talaffuzi va imlosini qoida bilan tushuntirish;

Bir necha qo‘shimchaning imlosiga doir yo‘l qo‘yilgan xatolarni tegishli qoidalarni eslab tuzatish va izohlash talab etiladigan mashq va topshiriqlar interakt usuli uchun material bo‘la oladi.

III. Bilim va til birliklarini faollashtirishga yo‘naltirilgan mashqlar

“Интерактивные формы обучения русскому языку” nomli o‘quv qo‘llanmasida ko‘rsatilishicha, mashq va topshiriqarda tasniflang, asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, misol keltiring (modellashtiring), tashxis qo‘ying, baho bering kabi undovchi so‘zlar ko‘proq qo‘llanishi maqadga muvofiq [3].

Bilim komponenti hisoblanmish qoidalarni faollashtirish muammolari, yo‘l-yo‘riqlari metodist olimi S.S.Tajbenova tomonidan atroflicha ishlab chiqilgan [6]. O‘qituvchi ushbu monografiyada tavsiya etilgan mashq turlari orasidan interakt usuli qo‘llangandagi topshiriqlarga mos ravishda tanlab oladi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, interakt usuli qo‘llanganda mashqlar faqat retseptivdangina iborat bo‘la olmaydi. Aksent retseptiv-reproduktivdash (qoidani ko‘rib olib aytishdan) reproduktiv (qoidani eslab qolib aytish) va, nihoyat, mahsuldor (mustaqil ravishda qoida chiqarish) tomon siljib boradi.

Keyingi davrda elektron resurslar tashkil etish, interakt usulini shular yordamida uyushtirish, bunda o‘quvchilarning juft bo‘lib ishlashlarini nazarda tutish imkoniyatidan foydalanish masalalari paydo bo‘lmoqda. Deevaning bu xususda shunday yozadi: “Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan interaktiv elektron o‘quv kurs ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish va amalga oshirishni ta’minlovchi – o‘quv reja, fan yoki o‘quv kursining ma’lum bir qismi bo‘yicha elektron kurslar, o‘quv yoki amaliy qo‘llanmalar, o‘tilgan mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish sifatini nazorat qilish uchun test materiallari, fan yoki o‘quv kursini o‘rganish hamda nazorat va kurs ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, o‘quv (didaktik) qo‘llanma va masalalar to‘plamlarini qamrab olgan, elektron shaklda saqlovchi vositalarda joylashtirilgan, tizimlashgan nazariy-amaliy o‘quv kursidir” [1,7]. Uning fikricha, vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilar diqqatini qaratish va saqlab turish, bilimni chuqurroq anglash, nutqiy faoliyat turlarini (tinglash, o‘qish, so‘zlash, ba’zan yozish) qatnashtirish, xotirada to‘liqroq olib qolish, kognitiv faoliyatni jalb etish, vaqtni tejash imkonini beradi.

Mashq shartlari asosan reproduktiv-mahsuldor mazmunda ta’riflanadi. Bu jarayon kuchli o‘quvchilarning kuchsizlardan so‘rashi va bunga javoban gapirtirishi, ularga nimanidir tushuntirishi va boshqa shu kabilar mazmunida yuz beradi. Shu bois reproduksiya (tayyor mazmunda gapirish) va ijodiy, ya’ni o‘z nutqiy mahsulini yaratish (produksiya) ustuvorlik qiladi. Boshqacha aytganda, passiv faoliyatdan faolga qarab boriladi. Qoida haqida fikrlashish faol nutqiy jarayon sanaladi. Bunda til

materialini o'rgantish motivatsiyasi kuchayadi, chuqur anglash sodir bo'ladi, onglilik ortadi, nazariyadan amaliyotga o'tish yuz beradi. Tashkiliy jihatdan yondashganda esa, bilimlarni va til birliklarini mustahkamlash uchun mo'ljallanadigan mashq va topshiriqlar to'g'ri tanlanishi kerak. To'g'ri tanlangan mashq samaradorlik garovidir. Guruhlar o'rtasidagi raqobat o'quvchilarning bilimlarni egallashdagi o'zini namoyon qilish istagi samaradorlikni yana ham oshiradi. Bolalardagi kreativlik (bir-biridan qolmaslikka intilish) ushbu istakka quvvat beradi.

Mashq va topshiriqlarning bajarilishi. Mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida bilimdan foydalanish faoliyati kechadi. Agar bu jarayonga musobaqa va raqobat qo'shilsa, samaradorlik yana ham ortadi. Noan'anaviy ish turlaridan biri sanalmish o'yinlar o'quvchilarning bor imkoniyatlarini ishga solishlari tufayli jarayon yana ham natijador bo'ladi.

Interfaol metodini qo'llash niyatidagi o'qituvchi o'quvchilar uchun topshiriqlar tayyorlar ekan, quyidagilarni alohida hisobga oladi: yaxshi o'zlashtiradigan va bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga oladi; ona tili o'qitishning strategik va taktik maqsadlarini nazarda tutadi; darslarni tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan zamonaviy talablar (tendensiyalari) yo'nalishida ish olib boradi; ta'lim natijalarini bashorat qilish va tashxislash paytidagi mo'ljallar bilan muqoyasa qiladi. Ayni paytda mashq va topshiriqlarning bajarilishini tashkil etganda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim hamda malakalari saviyasini hisobga olish lozim.

Xulosa. Xullas, boshlang'ich sinf ona tili darslarida interakt usulini qo'llash jarayoni mashq va topshiriqlar asosida tashkil etilar ekan, ularni shunga mos ravishda to'g'ri tanlash va taqdim etish, bunda bilim komponentlaridan, o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Деева Е.М. Применение современных интерактивных методов обучения в вузе: практикум. – Ульяновск: УлГТУ, 2015. – 13 с.
2. Исмаилова А.А. Ўқувчиларнинг таълимдаги ютуқларини баҳолаш: танлов рамкасини шакллантириш // Замонавий таълим / Современное образование. – 2021. – № 12 (109). – Б. 50.
3. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения: учебное пособие. Модуль 1. – Ташкент, 2007. – 43 с.
4. Тажбенова С.С. Она тили дарсларида ўқувчиларга назарий билимларни амалда қўллашни ўргатиш методикаси (таълим қозоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида): педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Нукус, 2018. – 150 б.

5. Тажбенова С.С. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг лингвистик компетенциясини шакллантириш методикаси (таълим қорақалпоқ ва қозоқ тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида): педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси. – Нукус, 2025. – 200 б.

6. Тажбенова С.С. Она тили дарсларида о'қувчиларнинг lingvistik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi (ta'lim qoraqalpoq va qozoq tillarida olib boriladigan boshlang'ich sinflar misolida): monografiya. – Nókis: "NMPI baspaxanası", 2025. – 172 b.

7. Усмонов М.С. Мультимедиявий технологиялар асосида интерактив электрон ўқув курслардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Жиззах, 2021. – 13 б.

8. Филиппова Г.Н., Горюнова В.А. Особенности интерактивного обучения в начальной школе // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 46. – С. 399–404. – URL: <http://e-koncept.ru/2016/76554.htm>.

9. Шмұльская Л.С., Веккесер М.В. Интерактивные формы обучения русскому языку: учебное пособие / под общ. ред. Л.С. Шмұльской. – Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2022. – 111 с.